

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatda 2 433 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 562 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,1 % i) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 508 tasi (20,9 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 178 tasi (7,3 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 170 tasi (7,0 %) mebel ishlab chiqarishga va 144 tasi (6,9 %) mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-aprel holatiga ko'ra



II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 39 772,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 111,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	39 772,9	111,4
Navoiy sh.	34 643,2	112,4
Zarafshon sh.	167,8	101,9
G'ozg'on sh.	31,9	106,6
tumanlar:		
Karmana tumani	2 672,6	96,8
Konimex tumani	139,1	86,1
Qiziltepa tumani	353,5	107,2
Navbahor tumani	305,9	109,0
Nurota tumani	102,3	101,2
Tomdi tumani	17,3	107,2
Uchquduq tumani	140,3	107,0
Xatirchi tumani	391,8	98,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy shahrida (207 263,2 ming so'm), Karmana tumanida (18 805,6 ming so'm), Konimex tumanida (3 740,9 ming so'm), Uchquduq tumanida (3 528,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Navoiy shahrida (108,9 %), Tomdi tumanida (108,7 %), Navbahor tumanida (107,4 %) hamda Uchquduq tumanida (106,0 %), yuqori o'sish sur'atlari qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-mart oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 32 199,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,0 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 5 369,0 mlrd so'm (13,5 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 103,6 mlrd so'm (5,3 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 100,3 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-mart oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 11,4 ming yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 50,3 % ga oshgan), 23,6 tonna tvorog va tvorogdan mahsulotlar (9,8 % ga ko'paygan), 473,5 ming tonna sement (9,4 % ga kamaygan) hamda 669 tonna xlor (53,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	11,0	7,6	11,5
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	23,2	21,5	23,6
Yogurt, tonna	1,3	0,6	4,7
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbol-kalar, ming d	466,5	883,0	342,7
Azot, ming m ³	2,0	2,5	83,9
Argon, ming m ³	39,8	389,1	396,6
Mochevina (karbamid), ming t azot	39,1	65,5	65,0
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	1,9	2,3	3,0
Portlandsement, ming t	552,3	522,5	473,5
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, ming t	17,1	65,8	72,8

**2023-2024-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 83,3 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,4 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2024-yilning yanvar-mart oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,3 % (9,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 86,1 % (83,5 %), quyi texnologiyali 6,4 % (6,7 %)ni tashkil etgan.

Navoiy viloyatida yirik korxonalar tomonidan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 79,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 94,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	2 769,1	3 221,5	2 544,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 640,0	1 723,5	1 634,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 6,8 m. ga ko'payish, oqava suvlarning shlami 17,7 m. % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 44,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	10,5	12,4	84,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	39,9	33,5	14,8
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	11,2	11,6	5,1

*2023-2024-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 681,4 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 6,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Suyarov
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

